



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 20-sentabr

468-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 17-sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlash, jamoat tartibini saqlash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olishga doir chora-tadbirlarni kuchaytirish to‘g‘risida” 2024-yil 12-sentyabrdagi 569-son qarori ijrosi haqida”gi 431-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash va jamoat tartibini saqlash tizimini takomillashtirish hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha tadbirlarni kuchaytirish, shu to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-sentyabrdagi 569-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 17-sentyabrdagi 431-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

- Namangan viloyati hokimining 2024-yil 17-sentyabrdagi 429-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-sentyabrdagi 569-son qarori bilan: ommaviy tadbirni o‘tkazish obyekti tanlashda fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlash, jamoat tartibini saqlash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, shuningdek, ularga tahdid soluvchi holatlarda fuqarolarning evakuatsiyasini samarali tashkil etish sharoitlarini mavjudligini hisobga olish; tomoshabinlar va boshqa ishtirokchilarga favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda evakuatsiya qilish tartibi, yo‘llari hamda yo‘nalishlari haqidagi ma‘lumotlarni e‘lon qilinishini tashkil etish; ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan obyektga kirish-chiqish xavfsizligini, obyektga borish va kirish joylarida avtotransport vositalarini harakatini cheklaydigan fizik to‘siqlar o‘rnatilishini ta‘minlash.
- Ichki ishlar bo‘limi (D.Karimov) tegishli xizmatlar va tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-sentyabrdagi 569-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.
- Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Ichki ishlar bo‘limi D.Karimov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**

